

## KICHIK BIZNESDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASI

**Nozimov Muzaffar**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Tadbirkorlik va boshqaruva fakulteti 3-BB-21-guruh talabasi*

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faol bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini faoliyatini oshirish xamda xorij tajribalarini qo'llash mamlakatimizda. Bugungi davrda davlatimiz tomonidan kichik va o'rta biznesga juda katta imkoniyatlar berilyapti. 2024 yilni Yoshlar va biznesni qo'llab quvatlash yili deb elon qilindi. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalg etishda katta axamiyat berilmoqda.

**Kalit so'zlar:** milliy daromad kichik va o'rta biznes rivojlantirish, subsidiya innovatsiya tavar aylanmasi invistitsiya tavar aylanmasi, makroiqtisodiy barqarorlik, investor, yalpi ichki maxsulot, xususiy sektor, iqtisodiy resurslar, kapital.

### **ANNOTATION**

This article discusses the issue of increasing the activities of small businesses and private entrepreneurship entities active in various sectors of the national economy and the application of foreign experience in our country. Today, our state provides great opportunities for small and medium-sized businesses. 2024 has been declared the Year of Youth and Business Support. Great importance is attached to attracting foreign investments for the development of small and medium-sized businesses.

**Keywords:** national income, small and medium-sized business development, subsidy, innovation, turnover, investment, turnover, macroeconomic stability, investor, Gross Domestic Product, Private sector, economic resources, capital.

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается важность активизации деятельности малого бизнеса и частного предпринимательства в различных отраслях народного хозяйства и применения зарубежного опыта в нашей стране. Сегодня наше государство предоставляет большие возможности малому и среднему бизнесу. 2024 год объявлен Годом поддержки молодежи и бизнеса. Большое значение придается привлечению иностранных инвестиций для развития малого и среднего бизнеса.

**Ключевые слова:** национальный доход, развитие малого и среднего бизнеса, субсидия, инновации, товарооборот, инвестиции, товарооборот, макроэкономическая стабильность, инвестор, валовой внутренний продукт, частный сектор, экономические ресурсы, капитал.

## KIRISH

Hozirgi paytda jahon hamjamiyatining rivojlangan mamlakatlarida an'anaviy ilmiy texnika taraqqiyotida innovatsion, ilmiy texnologik tartibga jadal o'tish jarayoni ro'y bermoqda. Ayniqsa diversifikatsiya sharoitida bunday jarayon ko'lami yanada kengayib borishi tabiiy. Innovatsion tartibning avvalgisidan farqi shundaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, shakllanishi va davlat tomonidan moliyalashtirish tizimidan texnologik va ilmiy innovatsiyalar barcha turlarini davlat tomonidan rag'batlantirishga o'tish kuzatilmogda. Hozirda AQSHda va xususan, Farbiy Yevropada eng avvalo Fransiya, Germaniyada xususiy mulkni ko'paytirish xamda ularni moddiy texnika bazalarini rivojlantirish muxim axamiyat kasb etmoqda. Uning asosiy vazifasi - ilmiy va texnologik innovatsiyalar, eng avvalo, kichik va o'rta korxonalar uchun, shuningdek, o'rta va qisqa muddatli dasturlar sohasida tezkor diversifikatsiya uchun eng qulay sharoitlar yaratishdir. Kichik biznesni moliyalash bo'yicha AQSH jahonda yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Yangiliklarni joriy etish jarayonlari juda tez amalga oshirilib ularning raqobatchilari ham topiladi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda diversifikatsiya sharoitida ilmiy tadqiqot ishlari va muhandislik tadqiqotlari (ITIMT)ni moliyalashdagi davlatning roli ancha faol bo'lib, faqat davlat tashkilotlari tomonidangina amalga oshirilmaydi. Buning uchun xususiy korxonalar ham o'z xissalarini qo'shib boradilar. Hozirgi vaqtida AQSHda federal hukumat ulushi (moliyalash manbai sifatida) barcha xarajatlar salmog'ining 50 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniya, Shvetsiya va Germaniyada 40 foiz atrofida, Fransiyada 57 foiz, Yaponiyada 28 foizga to'g'ri keladi. Ilmiy tadqiqot ishlari va muhandislik tadqiqotlari (ITIMT) sohasining davlat tomonidan bunday e'tibor bilan ko'llab quvvatlanishi qonuniy bo'lib, bir qator dalillar bilan izohlanadi. Diversifikatsiya sharoitida ilmiy tadqiqot konstruktorlik ishlari davlat tomonidan turli shakllarda qo'llab-quvatlanishi mumkin, jumladan:

Hududlarda axoli turmush tarzini yaxshilash va xududning ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatgichlarini oshirib borish judaxam zarur hisoblanadi. Yangi korxonalarni qo'llab quvvatlash shart-sharoitlar yaratilib borishi uchun bevosita byudjet mablag'larini ajratish (davlat tashkilotlari orqali moliyalash, shartnomalar tuzish, subsidiyalar ajratish). Ayni holatda davlat yirik xarajatlar talab qilinadigan va ko'plab tavakkalchilikka ega bo'lgan tashkilotlarni yetakchi yo'nalishlaridagi ko'p kapitalli tadqiqotlarni moliyalashni o'z bo'yninga oladi;

Ilmiy tadqiqotlarni (ITIMT) bilvosita moliyalashning turli usullari: xususiy kompaniyalar, innovatsiya jarayonini rag'batlantirish, shuningdek, ular investitsiyasini yangi asbob-uskunalar olish uchun kengaytirish maqsadlarida soliq va ammortizatsiya imtiyozlaridan foydalanish. Davlat ayni vaqtida kichik tadqiqot biznesi uchun shart-sharoit yaratishga ko'maklashadi, davlat tomonidan fan-texnika taraqqiyotini bevosita moliyalash xususida to'laroq to'xtab o'tamiz. Rivojlangan davlatlarda innovatsiyalarni amalda qo'llash

uchun subsidiyalar (grantlar) beriladi, subsidiyalarning o'ziga xosligini quyidagicha belgilash mumkin:

- ular kichik ijrochilarining asosiy ish joyida oylik ish haqidan va unga bog'liq bo'limgan holda beriladi;
- subsidiyalar qaytarib berilmaydi;
- subsidiya olgan olim yoki ilmiy jamoa, olgan mablag'larni mustaqil sarflaydi. AQSH davlat innovatsiya siyosatining obyekti - bu asosan xususiy biznesdir.

Masalan, yuqoridagi ma'muriyat tasnifiga ko'ra, mashinasozlikda 41 ta quyi tarmoq mavjud bo'lib, ularning 18 ta quyi tarmog'ida 250 kishigacha, 12 quyi tarmog'ida 500 kishigacha, 11 quyi tarmog'ida 1000 kishigacha ishchilar band bo'lsa kichik kor- xona hisoblanadi.

Frantsiyada kichik va o'rta tadbirkorlar umumiylar konfederatsiyasi kichik va o'rta korxonalarga quyidagicha ta'rif beradi:

«korxona egasi kapitalning katta qismiga ega bo'lgan, o'z xodimlarini shaxsan nazorat qiladigan va ular bilan doimiy bevosita aloqada bo'ladigan korxonalar kichik va o'rta korxonalar deb yuritiladi»

Kichik va o'rta korxonalarning miqdoriy mezonlari quyidagilardan iborat: 10 kishidan 50 kishigacha yollanma ishchiga ega bo'lgan korxonalar kichik, 50 dan 500 gacha o'rta va 500 dan ortiq ishchiga ega bo'lgan korxonalar yirik korxonalar. Germaniyada ham kichik va o'rta korxonalarning miqdoriy mezonlari Fransiyadagi singari belgilangan.

Fransiyada boshqa bir qator yevropa mamlakatlari (Ger- maniya, Italiya va boshqalar) kabi hunarmand maqomi mav- jud. odatda ishchilar soni 10 kishigacha bo'lgan korxonalar hunarmand maqomiga ega bo'ladilar. AQshda bunday tushuncha mavjud emas. Bunday korxonalar u yerda kichik korxonalar deb yuritiladi.

Fransuz hunarmandi o'z hisobidan korxona tashkil etuvchi, kasbiy malakaga ega bo'lgan, o'z korxonasini shaxsan boshqaruvchi va uning ishida bevosita qatnashuvchi kishidir. Hunarmand yollanma mehnatdan ham foydalanishi mumkin, biroq ularning umumiylar soni oila a'zolarni ham qo'shib hisoblaganda 10 kishidan oshmasligi lozim. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda korxona egasi ayni vaqtida ishchi vazifasini ham bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, hunarmandchilikda mulkning mehnatdan ajralishi yuz bermagan bo'ladi.

Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini faqat bitta mezon bo'yicha aniqlash maqsadga muvofiq emas. Buning sababi shundan iboratki, yirik, ammo to'liq avtomatlashtirilgan sanoat korxonasi ko'p ishchi kuchini talab qilmaydi. Ayni vaqtida, masalan, alkogol ichimliklari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishchilar soniga nisbatan tovar aylanmasi muhimroq ko'rsatkich hisoblanadi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotni yanada liberallashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkor- lik sub'ektlarini yagona mezon asosida aniqlash bandlik muammo- sini ijobiy hal etishga aks ta'sir ko'rsatadi.

Biznes bilan shug'ullanuvchi shaxs foyda olishni maqsad qilib olar ekan, u yangi va yangi sohalarni o'zlashtirishga intiladi. Bu esa investitsiyalar joriy etishni talab etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi investitsiyalarni kiritishga va investitsiyalardan foydalanishga juda moyil bo'ladi. Chunki ular bozordagi o'zgaruvchan muhitda elastik harakat qila oladigan qobiliyatga ega bo'ladi. Agar rivojlangan mamlakatlardagi kichik biznes korxonalarini tahlil etadigan bo'lsak, ularning aksariyati investitsiyalarni erkin joriy eta oladi, shu bilan birga, investitsiyalardan unumli foydalana oladilar ham. Kichik biznes korxonalarida investitsiyalarni amalga oshirish asosan ikki maqsadga yo'naltiriladi:

1. Yangi kichik korxona tashkil etish.
2. Bankrot bo'lgan kichik korxonalarini hayotiyligini saqlab qolish.

Rivojlangan mamlakatlardagi kichik biznes korxonalari investitsiyalar asosida rivojlanib, tarmoqlanib boradi. Masalan, AQShning aksariyat korxonalari Yaponiya investitsiyalari asosida o'z faoliyatini tiklab olgan. Angliyadagi kichik korxonalar Niderlandiyalik investorlardan ko'p bora foydalanishgan. Hozirgi kunga kelib AQSh iqtisodiyotida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalarning iqtisodiy aloqalarida Xitoy investorlarining ulushi juda katta. O'zbekistonda ham kichik biznes korxonalari rivojlanib borar ekan, dastlab savdo, maishiy xizmat sohalarida investitsiyalar kirib kela boshladi. Ammo mamlakatimizda investitsiyalarning asosiy qismi ishlab chiqarish va mahalliy sanoat, ijtimoiy soha korxonalarini rivojlantirishga sarflanmoqda. Davlat mulkini xususiyga aylantirish jarayonlarida asosan ichki kapitalning ulushi katta bo'ldi. Hozirgi kunda O'zbekistondagi kichik biznes korxonalari asosan Koreya, Angliya, AQSh, Germaniya kabi mamlakatlarning investitsiyalaridan keng foydalanmoqdalar.

Investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni yechish uchun murojaat qilinadi. Xorijiy korporatsiyalarning moliyaviy bo'limlari mablag'lardan qisqa muddatli investitsiyalar qatorida yuqori foyda olish maqsadida foydalanish moddiy manfaatdorlikni belgilashga olib keladi. Bunday investitsiyalar ko'pincha xususiy tadbirkorlar kapitaliga asoslangan, ba'zida esa o'z qimmatbaho qog'ozlarini chiqaradi va xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib oladi. O'zbekiston xorijiy investorlar bilan tengma-teng iqtisodiy aloqalar olib borish asosida sherikchilik munosabatlarini olib boradilar. Har qanday investitsiyalar mamlakatimizga kirib kelishiga yo'l qo'yilmaydi. Agar kirib kelayotgan investitsiyalar mamlakatimiz iqtisodiyotiga uning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratса, bunday xorijiy investitsiyalar yurtimizga birinchilar qatorida kirib keladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qulay investitsion iqlim shakllanmasdan va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiy hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalasha olmaydi. O'zbekiston xukumati tomonidan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, tadbirkorlik va

biznesni rivojlantirish sari tutgan izchil yo'li xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish jarayonini faollashtirish uchun real shart-sharoit yaratmoqdalar. Respublika iqtisodiy tuzilmasini tubdan o'zgartirishning hozirgi bosqichida bevosita xorijiy investitsiyalar katta qiziqish uyg'otmoqda. Ularni jalb etishning asosiy usullari quyidagilardir: qo'shma korxonalar ochish (shu jumladan, xorijiy investorlarga o'zbek emitentlari aktsiyalar paketlarni sotish yo'li bilan); O'zbekiston hududida sof xorijiy kapitalli korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish; Kontsessiyalar asosida xorijiy kapitalni jalb etish; Xorijiy investorlarni mamlakatning muayyan mintaqalariga faol jalb etishga qaratilgan erkin iqtisodiy zonalar yaratish. Hozirda jalb etilgan xorijiy investitsiyalar tuzilmasini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, bunday investitsiyalarning katta qismi eksportga mo'ljallangan tarmoqlarga: yoqilg'i-energetika majmui, neft-kimyo, oltin qazib olish va paxtani qayta ishlash sanoatiga, yoxud o'z-o'zini qoplash muddatlari qisqa bo'lgan va ko'p fond talab qilmaydigan yuqori rentabelli loyihalarga: savdo, telekommunikatsiya, umumiyligi ovqatlanish, yirik shaharlarda ofis va mehmonxona binolari qurish, oziq-ovqat sanoati va moliya xizmatiga yo'naltirilmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakat iqtisodiyoti tarmoq tuzilmasining takomillashib borayotganligi yangi ishlab chiqarishdagi bevosita xorijiy investitsiyalarning o'sish tendentsiyasini kuchaytirmoqda. Avtomobilsozlik, elektron, elektrotexnika sanoati rivojlandi. Qurilish industriyasini aloqa korxonalarida va qishloq xo'jaligida eng yangi texnologiya joriy qilinmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotiga mablag' solishga yoki kiritishga tayyor turgan xorijiy investitsiyalarning asosiy toifasini qarab chiqadigan bo'lsak, ular quyidagicha ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

1. Eng yirik transmilliy korporatsiyalar - bular O'zbekistonga investitsiya kiritishda mamlakatning tabiiy-xom ashyo resurslarga hamda halqaro standartlar bo'yicha ancha salmoqli bo'lgan ichki iste'mol bozoriga

kirib borish imkoniga ega bo'lgan kompaniyalardir. Bunday kompaniyalarning bosh idoralari rivojlangan mamlakatlarda joylashgan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda ularning yirik ofislari yoki korxonalari faoliyat ko'rsatadi va shu tarzda o'zlarining investitsiyalarini jalb etadilar. Bunday yondashuv investitsiyalar uchun uzoq muddatli global investitsion strategiyaning nisbatan katta bo'limgan qismini qamrab oladi. Bu esa korporatsiyalarga investitsiyalar kiritishning muayyan xatarliligi va qo'shimcha foyda bermasligi mumkin. Bu toifalarga quyidagi xorijiy investorni kiritish mumkin: yoqilg'i energetika majmuida - "N'yumont", "Teksaks" (AQSh); "Mitsui", "Marubeni" (Yaponiya); kimyo sanoatida - AKA (Germaniya); "Krebs" (Frantsiya); Oziqovqat sanoatida - "Koka-Kola" Bat Industries; biznesda - ABN AMRO banki; telekommunikatsiya sohasida - "Siemens", Atsatel Deu;

2. Xususiy va kichik xorijiy kapital - O'zbekistonda eng avvalo savdo, qurilish va xizmat ko'rsatish sohasidagi ayrim loyihalarning odatda, juda yuqori kapital sarflash talab qilmaydigan loyihalarning o'rta yuqori rentabelli bo'lishi va o'z-o'zini qoplashini ta'minlash

uchun jalb etiladi. Bunday kapital kiritish yoki jalb etish orqali ko'rildigan afzalliliklar shunday iborat bo'ladiki, bunda investorlar ko'z o'ngida o'tish davri iqtisodiyotining iqlimiga xos noqulayliklar va xatarlarni yopib ketadi. O'zbekistonda kichik biznes korxonalariga investitsiyalarni jalb etilar ekan, investorlar uchun birinchi navbatda, yuqori rentabelli va tez qoplanadigan loyihalarga mablag' solish xarakterlidir. Ular uchun investitsiya xatari mahalliy xususiyatni yaxshi bilish hamda mamlakatdagi keng amaliy status kontraktlar hisobidan ancha kamayadi. Kichik biznes korxonalariga investitsiyalarni joriy etish shunisi bilan ajralib turadiki, ularni qaytadan qoplanishi tez amalga oshadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, bevosita xorijiy investitsiyalar respublika hududi bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: - xorijiy investitsiyalarning qariyb 45 foizi Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga to'g'ri kelgan; - 35 foizdan ko'prog'i Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy va Andijon viloyatlariga to'g'ri kelgan. Shunday qilib, xorijiy investitsiyalarning katta ulushi savdo, transport va informatsion infratuzilmasi rivojlangan va iste'mol talabi yuqori bo'lgan mintaqalarga (Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlariga) yoxud yonilg'i-energetika mahsulotlarining eksport uchun ishlaydigan korxonalari ko'p bo'lgan mintaqalarga (Qashqadaryo va Navoiy viloyatlariga) ketadi.

Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi turmush darajasini yaxshilash kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish soxasidagi xorij tajribasini o'rganish alovida axamiyat kasp etadi.

## XULOSA

Bugungi kunda O'zbekistonning xududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni faolligi natijasida bir jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM, resurslardan samarali foydalanish, sanoati rivojlangan davlatlar orasi iqtisodiy rivojlanish darjasini va aholining eng uzoq umr ko'rishi bo'yicha jahonda birinchi o'rinni egallab turibdi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlar uchun judayam ko'p imkoniyatlar yaratilgan masalan viloyatlarda yer va binolarning hamda davlatga tegishli noturar joylarning auksion orqali 10 yil, 20-30 yilga sotilishi juda xam katta imkoniyatlar yaratildi. Xududlardagi tadbirkorlar bunday imkoniyatlaridan samarali foydalanib yashash turmush tarzini yaxshilab boryaptilar. Respublikada iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni boshqarish, rag'batlantrish va qo'llab-quvvatlash siyosati kompleks amalga oshirilmoqda. Bu jarayonni muvaffaqiyatli yuritish uchun respublikada qator farmonlar, qonunlar, va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida «Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil qilishni rag'batlantrish chora-tadbirlari va ularning faoliyat ko'rsatishi to'g'risida»gi Prezident Farmoni ham mavjud bo'lib, ushbu me'yoriy hujjat tadbirkor va ishbilarmonlarning rejali ish olib borish istaklarini ishonchli kafolatlashni ta'minlaydigan huquqiy asosni yanada mukammal tarzda shakllantirdi. Ana shu qonun-qoidalarga asoslanib, pul kreditlarining taqchilligi tufayli milliy iqtisodiyotni

rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda kuchli rag'batlantiruvchilik tadbirlarini olib borish davom etmoqda.

### **ADABIYOTLAR:**

[1] Ичировкин Б.Н. Малые формы хозяйствования. - М.: «Экономика», 2006. - с. 11.

[2] Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. 2. М.: ТeИС, 2000. - с. 31

[3] «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тутрисида»ги Узбекистон Республикаси конунида; Узбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 2014 йил 7 апрелдаги ПФ-4609-сонли

[4] Эшов М.П.Узбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиши: омиллар, натижалар ва истиқболлар. Монография. -Т.. «Маънавият», 2017. - 16 б.

[5] "Иктисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2017 йил, Макола муаллифи Юлдашев Абдухаким Абдукаримович, ТДИУ Илмий тадқикот ва ИПКТ булими му^андиси.

[6] "Иктисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2017 йил, Макола муаллифи Юлдашев Абдухаким Абдукаримович, ТДИУ Илмий тадқикот ва ИПКТ булими му^андиси.

[7] Малое предпринимательство в России прошлое, настоящее и будущее. Под ред Б.Г.Ясина, А.Ю. Чупуренко, В.В.Буево.-М.:Фонд "Либеральная миссия" 2003.- Стр -137